



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XORAZM VILOYATI  
URGANCH INNOVATSION UNIVERSITY NTM REKTORINING  
BUYRUG'I

2024-yil "26" 12

No 60-uzp

Urganch sh.

**"Ustoz-shogird" Nizomini hamda  
"Ustoz-shogird" Kengashi tarkibini  
tasdiqlash to'g'risida**

Urganch innovatsion universitetining 2024-yil 26-dekabrda 5-sonli Kengash yig'ilishida ko'rilgan "Ustoz-shogird" Nizomini hamda "Ustoz-shogird" Kengashi tarkibini tasdiqlash to'g'risidagi qarorlarining ijrosini ta'minlash maqsadida

**BUYURAMAN:**

**1. Barcha prorektorlar, bo'lim boshliqlari, fakultet dekani hamda kafedra mudirlariga:**

Urganch innovatsion universitetining 2024-yil 26-dekabrda 5-sonli Kengash yig'ilishida ko'rilgan "Ustoz-shogird" Nizomini hamda "Ustoz-shogird" Kengashi tarkibini tasdiqlash to'g'risidagi qarorlari ijro uchun qabul qilinsin.

**2. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori M.Masharipovga:**

- universitetning har bir talaba yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish ishlari yo'lga qo'yilsin,
- Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash bo'limi bilan ishlab chiqilgan "Ustoz-shogird" Nizomi tasdiqlansin,
- "Ustoz-shogird" tizimini maqsadli tashkil etish hamda boshqarish uchun "Ustoz-shogird" Kengashi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

**3. Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash bo'limi boshlig'iga:**

- "Ustoz-shogird" Nizomi barcha prorektorlar, bo'lim boshliqlari, fakultet dekani hamda kafedra mudirlariga yetkazilsin,
- universitetning har bir talabasi amaliy jihatdan kasbiy jarayonlarini mukammal o'zlashtirishi, ijodiy fikrlay olishi, odob-axloq, ma'naviy yetuk hamda ziyoli bo'lishlari uchun talabalarga ilmiy rahbarlar tayinlansin.

**4. Devonxona mudiri D.Normetovaga:**

- ushbu buyruq tegishli tartibda barcha prorektorlar, bo'lim boshliqlari, fakultet dekani va kafedra mudirlariga yetkazilsin.

**5. Mazkur buyruq ijrosi nazorati ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori M.Masharipov zimmasiga yuklatilsin.**

**Asos:** Urganch innovatsion universitetining 2024-yil 26-dekabrda 5-sonli Kengash yig'ilishi bayonnomasidan ko'chirma.



Rektor

M.Ishmuratov

**Urganch innovatsion universiteti Kengashining yig'ilish  
№ 5 BAYONNOMASIdan ko'chirma**

2024-yil 26-dekabr

Urganch shahri

**Yig'ilish raisi:**

M.Ishmuratov - universitet rektori

**Ishtirokchilar:**

Kengashning 19 nafar a'zosidan 17 nafari

**KUN TARTIBI:**

...

**4. Har xil masalalar**

**4.4. Universitet iqtidorli talabalariga ilmiy rahbar tayinlash to'g'risida.**

**ESHITILDI**

Ushbu masala yuzasidan ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor M.M.Masharipov so'zga chiqdi va universitetning iqtidorli talabalarining ilmiy salohiyatini yanada oshirish hamda ularning ilmiy faoliyatini jadallashtirish maqsadida universitet "Ustoz-shogird nizomi"ni tasdiqlash, shu bilan birgalikda har bitta iqtidorli talabaga universitet professor-o'qituvchilari orasidan ilmiy rahbar tayinlash hamda talabalarining keyingi bosqichlarga o'tishlari hamda nomdor stipendiyalarga tayyorlash vazifasini ushbu professor-o'qituvchilar zimmasiga yuklash taklifini kiritdi.

Kengash a'zolarining bir ovozdan qo'llashlari bilan

**QAROR QILINDI:**

4.4.1. Universitet "Ustoz-shogird nizomi" tasdiqlansin.

4.4.2. Universitet "Ustoz-shogird" kengashi tarkibi tasdiqlansin.

4.4.3. Universitet iqtidorli talabalariga ilmiy ishlash, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo'limining tavsiyalari asosida ilmiy rahbarlar tayinlansin.

**Kengash kotibi**



**M.A.Masharipov**

Urganch innovatsion universiteti rektorining 2025-yil  
26-dekabrda "Ustoz-shogird" kengashi tarkibini  
tasdiqlash to'g'risidagi 60-119-son buyrug'iga 1-ilova

T/r	Kengash a'zolarining familiyasi, ismi, otasining ismi	Lavozimi, ilmiy darajasi
1.	Ishmuratov Madamin Jumabayevich	Rektor, filologiya fanlari nomzodi, Turon fanlari akademiyasi akademigi <i>Kengash raisi</i>
2.	Masharipov Mansurbek Masharipovich	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent <i>Rais o'rinbosari</i>
3	Satimov Bahodir Mangliboy o'g'li	Ijtimoiy-gumanitar fanlar va pedagogika fakulteti dekani, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, <i>a'zo</i>
4.	Maxmudov Umrbek Baxtiyorovich	"Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrası mudiri, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, <i>kotib</i>
5.	Olloyorov Quvondiq Madiyorovich	"O'zbek va xorijiy filologiya" kafedrası mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent, <i>a'zo</i>
6.	Sabirova Charosxon Atamamatovna	"Pedagogika va boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrası mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent, <i>a'zo</i>
7.	Abdirimov Razzoqberdi	"Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrası dotsenti, tarix fanlari nomzodi, <i>a'zo</i>
8.	Samandarova Sayyora Erkinovna	"O'zbek va xorijiy filologiya" kafedrası dotsenti, filologiya fanlari nomzodi, <i>a'zo</i>

9.	Saidov Yo'ldash Razzakovich	“Pedagogika va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrası dotsenti v.b., fizika-matematika fanlari nomzodi, <i>a'zo</i>
----	-----------------------------	--